

“BOBURNOMA” ASARIDA ALISHER NAVOIY TAVSIFI HAQIDA MULOHAZALAR

Subonqulova Marjona Abduxalilovna

JDPU Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada shoh va shoir Bobur mirzoning “Boburnoma” asari, uning adabiyotda tutgan o‘rni, unda keltirilgan tarixiy shaxslar nomi va Alisher Navoiy haqidagi Boburiy qarashlar haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Bobur, Boburnoma, tarixiylik, tarixiy shaxslar, Alisher Navoiy ta’rifi.

ABSTRACT

In this article, discusses the work “Baburnoma” by the king and poet Babur Mirza, its place in literature, the names of historical figures mentioned in it and Babur’s views on Alisher Navoi.

Key words: Babur, Baburnoma, historicity, historical figures, definition of Alisher Navoi.

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматривается произведение “Бабурнома” царя и поэта Бабура Мирзы, его место в литературе, имена упомянутых в нем исторических деятелей, а также взгляды Бабура на Алишера Навои.

Ключевые слова: Бабур, Бабурнома, историчность, исторические личности, определение Алишера Навои.

“Boburnoma” jahon adabiyoti va o‘zbek adabiyotidagi eng noyob va durdona asar. Bu o‘zbek adabiyotidagi dastlabki nasriy memuar asar hisoblanadi. Ushbu asar eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida, taxminan 1518/1519-1530- yillarda yozilgan. “Boburiya”, “Voqeoti Bobur”, “Voqenoma”, “Tuzuki Boburiy”, “Tabaqoti Boburiy”, “Tavorixi Boburiy” kabi nomlar bilan ham ma’lum. Boburning o‘zi esa “Vaqoye” yoki “Tarix” degan nomlarni ishlatgan. Ushbu asarda 1494-1529-yillarda Markaziy Osiyo, Afg‘oniston va Hindistondagi tarixiy-siyosiy voqealar yilma-yil o‘ta aniqlik bilan bayon qilingan. “Boburnoma” asarida 1551 kishining ism-shariflari tilga olingan.

Ushbu asarda Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osafiy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy Ohiy, Muhammad Solih kabi o‘nlab

ijodkorlar, Xoja Abdullo Marvariy, Qul Muhammad Udiy, Shayx Noyiy, Yusuf Ali, Mullo Yorak, Behzod kabi o'nlan san'atkorlar tavsif etilib, ularning ijodiy faoliyatlariga xolis baho berilgan. Jumladan, Alisher Navoiy haqida: "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubdirilar, - hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas". Bilamizki, Alisher Navoiy bilan Bobur mirzo 42 yil farq bilan bir-biriga zamondosh hisoblanadi. Shunday bo'lishiga qaramay, Bobur Navoiyni xuddi o'zi avvaldan tanishdek, suhbatdosh va hamfikirdek ta'riflaydi, e'zozlaydi, ijodiga yuksak baho beradi. Hattoki, bolalik paytlari Axsidagi saroyda yashayotgan paytida pinhona Navoiyning suratiga termulib Navoiy bilan hayolan suhbatlashardi, yozgan she'rlarini o'qib, Navoiydan xato va kamchiliklarini aytishini so'rar va Boburning ijodiga Navoiyning yuksak baho berishini hayolan tasavvur qilardi. Bundan ko'rinib turibdiki, Bobur Navoiyni o'ziga g'oyibona ustoz qilgan va uning ijodiga katta qiziqish bildirib, hurmat qilgan. Hattoki Navoiyga maktub ham yuborgan edi. Navoiy maktubga javob ham yuborganda, Bobur unga mos she'r yozilishi kerakligini o'ylab, vaqt o'tqizgandi. Shu orada Navoiy vafot etgandi.

Bobur "Boburnoma" asarida Alisher Navoiyni 16 marta tilga olgan. Jumladan, ushbu asarda 1505-1506-yillar bayon qilinarkan, Husayn Boyqaro haqida ma'lumot berayotganda, Alisher Navoiyga ham to'xtalib o'tadi. "Alisherbek naziri yo'q kishi edi. Turkiy til bila to she'r aytubdirilar, - hech kim oncha ko'p va xo'b aytqon emas". Bobur davom etar ekan, olti masnaviy kitob nazm qilibtur, besh "Xamsa" javobida, yanab bir "Maantiq ut-tayr" vaznida "Lison ut-tayr" otliq to'rt g'azaliyot devoni tartib qilibtur. "G'aroyib us-sig'ar", "Navodir ush-shabob", "Badoyi ul-vasat", "Favoyid ul-ul kibar" otliq. Yana "Mezon ul-avzon" otliq aruz bitibtur, bisyor mashhurdir. Yigirma to'rt ruboiy vaznida to'rt g'akot qilibtur". Bobur uning asarlari haqida ma'lumot berishda davom etar ekan: "forsiy devon ham tartib qilibtur, forsiy nazmda "Foniy" taxallus qilibtur, ba'zi abyiti yomon emastur, vele ansar sust va furudtur".

"Boburnoma"da Navoiy qurdirgan imoratlar haqida ham ma'lumotlar uchraydi: "Alisherbekning o'lturu uylarinim "Unsiya" derlar, maqbara va masjid jomining "Qursiya" derlar, madrsa va xakakohkim "Xalosiya" va "Ixlosiya" derlar, hammom va dorul-shifosinikim "Sofoiya" va "Shifoiya" derlar".

"Boburnoma"da Navoiy umrining so'nggi kuni shoirning vafoti haqida shunday ma'lumot uchraydi: "1500 yilning yozida Husayn Bayqaro Astrobodda bosh ko'targan Muhammad Husaynga qarshi qo'shin tirtadi, Hirotda Amir Muboriziddin bilan Alisher Navoiyga qoladi. Urush uzoqqa cho'zilmaydi. Shu yiling dekabr oyida ota va o'g'il o'rtasida sulh tuziladi va shoh poytaxtga qaytayotgani haqida xabar keladi. Shu munosabat bilan "Tomut-tavorix" muallifi Navoiy kitobdorlaridan biri bo'lgan mavlono Ali Burhoniy nomidan shunday fakt keltiriladi: Husayn Boyqaroning qaytish xabari kelgach, sahar vaqtida u kishi (Navoiy) meni chaqirtirdi. Bir turkiy g'azal

yoʻzgan ekan, “ko‘chir” deb buyruq berdi. Men ko‘chirdim. Uni bir yigitning qo‘liga berib, mirzoga yubordi. G‘azal musavvadasini menga topshirdi. U g‘azalda shoir o‘zining hayotidan tamom xayrlashuv holati bayon qilingan edi”. Odatda Navoiy shaharning bir qancha ko‘zga ko‘ringan kishilari bilan shohni kutib olish chiqishi kerak edi. Ushbu voqeani tarixchi Xondamir shunday yozadi: “Bir farsaxga yaqin yurganda sohibqironning dabdabali mihaffasi ko‘rindi. Shu vaqtda xudoning taqdiri bilan u zotning boshi aylanib qoldi. Navoiy Amir Xoja Shahobiddin Abdulloni o‘z yaqiniga chaqirib, “meni saqlashdan g‘ofil bo‘lmang, ahvolim o‘zgarib qoldi”,-dedi. Shu paytda Husayn Boyqaroning qo‘lini olishga yetishmoq uchun otda tushdi To‘satddan yetishgan kasalining og‘irligi oxirgi chekka borib qolgani va yurishga mador qolmaganidan, mazkur amir va mavlono Jaloliddin Qosim qo‘ltiqlariga kirib, shu yo‘sinda ilgari yurib, boshini baland darajali podshoh quchog‘iga qo‘ya oldi. Shu onda bu yuksak kasal saktaga aylanib oliy nasabli amirda qaytib harakat qilish va so‘zlashga majol qolmadi. Buni ko‘rgan Xondamir tzda qon olish zarurligi aytadi, tabiblar podsho bilan kelishguncha vaqt o‘tadi, qortiqqa qon chiqmayi. Shu ahvolda shoirni yarim tunda uyiga olib borishadi. Ertalab barcha mashhur tabiblar yig‘ilib, qon olishga harakat qiladilar. Hech qanday o‘zarish bo‘lmaydi. Shu ahvolda uch kun beharakat yotgan Navoiy 1501-yil 3-yanvarda hayotdan ko‘z yumadi. Shoir jasadi uning o‘zi tomonidan ilgari shu hodisa uchun qurib qo‘yilgan Masjidi jome gumbazi ostiga qo‘yildi”.

Bundan ko‘rinib turibdiki, Bobur Navoiyni va uning ijodiga, hayot yo‘liga katta qiziqish bildirgan. Uning hayotiga oid deyarli o‘zi bilgan barcha ma‘lumotlarni asarida keltirib o‘tgan. Ushbu asarda bunday ta‘rif-u tavsifga, boy hayotiyb ma‘lumotga ega tarixiy shaxslar, ijodkorlar bisyorgina. Biz buni faqatgina asarni o‘qish orqali bilib olishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. 9-sinf adabiyot darsligi
2. samdu.uz sayti
3. arxiv.uz sayti
4. oyina.uz sayti
5. киберленика